

TURON VA TURKISTON ATAMALARI HAQIDA

Yangiboyev Abdulaziz O`tkir o`g`li

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi Telefon raqami: +998931453353 Email:

yangiboyevabdulaziz53@gmail.com

Xasanova Nodira Ibragimovna

Ilmiy rahbar: Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o`qituvchisi Telefon raqami:

+998915749450 Email: nodira74xasanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dastlabki "Turon" atamasining kelib chiqishi qaysi xalqlarga borib taqalishi va keyinchalik kimlarga nisbatan qo'llanishi, qadimgi va o'rta asrlarda Turon toponomi, "Turon", "Turiston" hamda "Turkiston" atamalarining olimlar o'z asarlarida qayerlarga nisbatan ishlatganlari va ushbu atamalarning o'zaro bog'liqliklari haqida olimlarning fikr –mulohazalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Turon, Turiston, Avesto, Marzi Eron, Turkiston, Kaykovus, Afrasiyob, Turon hukmdori, Turlar, Marz-i Turon, Iroqi Ajam

«Turon» atamasi dastlab «Avesto»da tilga olingan. Tarixchi olimlarning faraziga ko'ra, turlar oriy xalqining bir tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Bu ikki xalq – oriylar va turlar o'rtasida raqobat mavjud bo'lgan. Milodning VI asrida O'rta Osiyo hududi Turk xoqonligi tasarrufiga o'tishi bilan bu ikki termin o'zaro uyg'unlashib, Turon nomi turklarga nisbatan beriladigan bo'ldi.¹

«Turon» yoki «Turkiston» deyilganda, o'rta asr tarixchilari Amudaryo va Sirdaryodan shimolda, to Sharqdagi Buyuk Xitoy devorigacha bo'lgan turklar mamlakatini tushunganlar. Ibn Arabshohning yozishicha, «Bu yer (Movarounnahr) ahlining e'tiqodicha, Jayhun ortasidan Sharqqa qarab cho'zilgan yerlar Turon, G'arbgga tomon cho'zilgan bu tomondagi yerlar esa Eron deb ataladi. Kaykovus va Afrasiyob bu mamlakatlarni o'zaro taqsim qilganlarida, Turon Afrasiyobga, Eron esa Kayqubod o'g'li Kaykovusga tekkan».²

Ilk o'rta asrlarda Sug'd konfederatsiyasining markaziy hokimiyati maqomida bo'lgan Samarqand muayyan bir hukmdorlik o'zining ko'p asrlik tanga-pul zarbi an'anasiga ega edi. Ayniqsa, VI–VIII asrlarda hukm surgan Samarqand ixshidlarining deyarli har biri o'z nomidan mis tangalar zarb ettirgan bo'lib, ularning aksariyatida shaklidagi tamg'alar o'rin olgan. Bu esa mazkur tamg'a Samarqandning hukmdorlik ramzlaridan biri sifatida uzoq moziyga ega bo'lganidan darak beradi. Mazkur tangalarda o'rin olgan hukmdor ismlari, unvonlar va joy nomlari o'z davri uchun mintaqa tarixini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Xususan, Samarqand tangalari orasida VI asr oxiri – VII asr boshlariga taalluqli xwβ twrnyn – «Turon hukmdori» (I-tip) yoki xwβ twrnyn x'γ'n – «Turon hukmdori Xoqon» (II-tip) iboralari bilan zarb qilingan tangalar aniqlangan bo'lib, ularning aks etgan unvonlar va tasvirlarning qadimgi turklarga xosligi diqqatga sazovoridir. Mazkur tangalarning birinchi tipidagi xwβ twrnyn – "Turon hukmdori" iborasi tarkibidagi "Turon"

¹ Hasanov.F. "Turon xalqlari harbiy san'ati" O'zbekiston milliy ensklopediyasi.Toshkent-2018 15 bet

² Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" 1 jild 86 bet

atamasi Markaziy Osiyoning qadimiy nomlaridan biri – Turonga aloqadorligini ko'rsatadigan bir qator dalillar mavjud.³

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, tur, tura so'zlari "turlar, turonliklar" ma'nosida dastlab sharqiy eronliklarni ifodalagan yoki aksincha, turkiylarning qadimgi nomi "turk" etnoni "tur" o'zagidan shakllangan. Keyinchalik esa, ya'ni ilk o'rta asrlarga kelib, "turklar" ma'nosida qo'llanila boshlagan.⁴

N. Sims-Vilyamsning ta'kidlashicha, qadimda va hatto ilk o'rta asrlarda "Turon" so'zi sharqiy eronliklarga nisbatan ishlatilgan, turklarga nisbatan esa ancha keyinchalik qo'llanila boshlagan va u "Turkiston" toponimining sinonimiga aylangan. Bu toponim "turklar davlati" ma'nosida ilk bor Firdavsiyning "Shohnoma" asari (XI asr) orqali ma'lum.⁵

Eronshunos olim R. Frayning ta'kidlashicha, islom dini kirib kelgandan so'ng musulmon mualliflari turklarni qadimiy turonliklar bilan tenglashtira boshlaganlar va shu tariqa "Turon" so'zi "turklar diyori" ma'nosida badiiy va tarixiy asarlarda o'rin olgan.⁶

Bu nom Firdavsiyning zamondoshi Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlarida ham uchraydi. Jumladan, u Mazduron (hozirgi paytda Turkmanistonning Eronga yaqin hududida joylashgan Seraxs tog' tizmalaridagi aholi manzili) toponimini "Marz-i Turon" tarzida keltirib, uni "turklarning chegarasi" sifatida ko'rsatgan. Beruniyning asarlarida "Turon"ga berilgan izoh Firdavsiyning ta'sirida bo'lmasdan, balki aynan o'sha davrda mazkur atama "turklar mamlakati" ma'nosida keng yoyilganligi bilan bog'liqdir. Bu tushunchani X asr oxirlarida, xususan, Qoraxoniylar Movarounnahrni qo'lga kiritgandan so'ng paydo bo'lgan deb talqin qilish ham o'zini oqlamaydi. Chunki Beruniy aynan o'z asarlarini yozayotgan pallalarda, ya'ni qoraxoniylar bu yerda o'z hokimiyatini to'laqonli yoyishga ulgurmasdan oldin, "Turon" nomi "turklar yashaydigan o'lka" sifatida ishlatila boshlagan, Mazduron esa "Marzi Turon – turklar chegarasi" sifatida qo'llanila boshlagan bo'lishi imkonsiz. Darvoqe, Beruniydan avval yashab ijod qilgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vaf. 997 y.) "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kaliti") nomli asarida (X asr) quyidagicha yozgan edi: "Jayhun daryosining qirg'oqlarini eronliklar Marzi Turon deb atashadi, ya'ni turklarning chegarasi ma'nosida, biroq Xuroson aholisi uni Marzi Eron, ya'ni Iroq chegarasi deb ataydilar."⁷

Yuqorida keltirilgan "Iroq" atamasi mazkur o'rinda o'rta asr musulmon manbalarida Eron hududi uchun ham ishlatilgan. "Iroqi Arab" va "Iroqi Ajam" kabi geografik atamalar mavjud bo'lgan.

Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, "Turon", "Turiston" va "Turkiston" toponimlari turli davrlarda, ba'zan esa bir vaqtda bir xil geografik hududga nisbatan ishlatilgan. Shuningdek, "turk" (türk) etnonimi tur- (tür-) so'ziga -k (-lar) qo'shimchasi qo'shilishi bilan "turklar" ma'nosini anglatgan. Shu asosda:

- Tur-k = "turklar" (turkiy tillarda)
- Tur-ân = "turklar" (eroniy tillarda, -ân – ko'plik yasovchi qo'shimcha)

³ Boboyorov, B. G'oyibov, A. Kubatin "Ilk o'rta asr Samarqand tangalarida "turon" toponimi" maqolasidan

⁴ Frye R.N., Say ılı A. Selçuklulardan avvel Orta Şark'ta Türkler. Belleten – Ankara, 1946.. 97-131

⁵ Sims-Williams N. Sogdian // Compendium linguarum Iranicarum / hrsg. Von Rüdiger Schmitt. – Wiesbaden: Reichert, 1989. 178 bet

⁶ Fray R. "Наследие Ирана" – Moskva 2002. 66 bet

⁷ Baxodirov R. "Istoriya Vostoka v "Klyuchax nauk" Sharqshunoslik. – Toshkent 2009 114 bet

Bu farazga ko'ra, "Turon" toponimi "turklar yashaydigan o'lka" ma'nosida shakllangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.⁸

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Turon atamasi qadimiyligini uning "Avesto"da uchrashi bilan izohlasak bo'ladi. O'rta asr tarixchilari, jumladan, Ibn Arabshoh va Beruniy, Turonni turklar yashaydigan o'lka sifatida qayd etganlar. Samarqand ixshidlariga oid tangalardagi "Turon hukmdori" iborasi ham bu atamaning uzoq tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi. Firdavsiyning "Shohnoma" asarida Turon turkiylarning yurtiga tenglashtirgan.

Shuningdek, "Turon", "Turiston" va "Turkiston" atamalari turli davrlarda bir-biriga yaqin ma'noda ishlatilgan. Ushbu nomlarning kelib chiqishi "tur" ildiziga borib taqalib, "turklar yashaydigan o'lka" degan ma'noni bildirgan bo'lishi ehtimoldan yo'q emas. Shu tariqa, "Turon" atamasi tarix davomida o'z mazmunini kengaytirib, turkiy xalqlarning yurti sifatida mustahkam o'rin egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanov.F. "Turon xalqlari harbiy san'ati" Toshkent-2018 15 bet
2. Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" 1 jild
3. Boboyorov, B. G'oyibov, A. Kubatin "Ilk o'rta asr Samarqand tangalarida "turon" toponimi" maqolasidan
4. Frye R.N., Say ılı A. Selçuklulardan avvel Orta Şark'ta Türkler. Belleten – Ankara, 1946.
5. Sims-Williams N. Sogdian // Compendium linguarum Iranicarum / hrsg. Von Rüdiger Schmitt. –Wiesbaden: Reichert, 1989.
6. Fray R. "Наследие Ирана" – Moskva 2002.
7. Baxodirov R. "Istoriya Vostoka v "Klyuchax nauk" Sharqshunoslik. – Toshkent 2009
8. Kamoliddin Sh.S. "Drevnetyurkskaya toponimiya v Sredney Azii" – T. 2006
9. Xasanova N.I. "O'zbekistonda Sovet hukumatining madaniy-ma'naviy siyosati va uning natijalari (Surxon vohasi hududi misolida, 1917-1941 yillar) Tafakkur nashriyoti, Toshkent 2022

⁸ Kamoliddin Sh.S. "Drevnetyurkskaya toponimiya v Sredney Azii" – T. 2006 13 bet